

QORAQALPOQ TILINING RIVOJLANISHIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Serjanova Nasiba Quatbay qizi,
Kegeyli tumani 8-sonli maktab o‘qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18746703>

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy raqamli texnologiyalar, internet va sun‘iy intellekt vositalarining qoraqalpoq tilini rivojlantirish, saqlash va ommalashtirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, elektron lug‘atlar, onlayn ta‘lim, mobil ilovalar hamda ijtimoiy tarmoqlarning til taraqqiyotiga ko‘rsatayotgan ta‘siri haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: qoraqalpoq tili, raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt, internet, onlayn ta‘lim, elektron lug‘at.

Abstract: This article analyzes the importance of modern digital technologies, the Internet, and artificial intelligence tools in the development, preservation, and popularization of the Karakalpak language. It also discusses the impact of electronic dictionaries, online education, mobile applications, and social networks on the development of the language.

Keywords: Karakalpak language, digital technologies, artificial intelligence, internet, online education, electronic dictionary.

Аннотация: В данной статье анализируется значение современных цифровых технологий, интернета и инструментов искусственного интеллекта в развитии, сохранении и популяризации каракалпакского языка. Также рассматривается влияние электронных словарей, онлайн-образования, мобильных приложений и социальных сетей на развитие языка.

Ключевые слова: каракалпакский язык, цифровые технологии, искусственный интеллект, интернет, онлайн-образование, электронный словарь.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida tillarning rivojlanishi ko‘p jihatdan zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liq. Internet, mobil ilovalar, elektron resurslar va sun‘iy intellekt asosidagi dasturlar milliy tillarni saqlash, o‘rganish va keng targ‘ib qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Qoraqalpoq tili ham bundan mustasno emas. Raqamli muhitda tilning qo‘llanishi uning yashovchanligi va rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Til va texnologiya munosabati haqida mashhur tilshunos David Crystal shunday yozadi: “Internet tilni yo‘q qilmaydi, aksincha uning yangi shakllarini yaratadi.” (Crystal, *Language and the Internet*, 2001). Bu fikr bugungi raqamli davrda milliy tillar ham yangi imkoniyatlarga ega bo‘layotganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, amerikalik olim Noam Chomsky til inson tafakkuri va madaniyatining asosiy ifoda vositasi ekanini ta‘kidlab, uni rivojlantirish uchun ijtimoiy va texnologik muhit muhimligini qayd etadi. Demak, zamonaviy texnologiyalar milliy tillarning rivojiga yangi sharoit yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Til va texnologiya munosabati ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Masalan, David Crystal internet til rivojiga salbiy emas, balki yangi shakllar olib kirishini ta‘kidlaydi. Noam Chomsky esa til inson tafakkuri va jamiyat bilan uzviy

bog'liqligini ko'rsatadi. Axborot jamiyati haqida tadqiqot olib borgan Manuel Castells zamonaviy texnologiyalar bilim tarqatish jarayonini tubdan o'zgartirganini qayd etadi. Ushbu nazariy qarashlar qoraqalpoq tilining raqamli muhitda rivojlanishini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tahlil, qiyosiy va tavsifiy metodlardan foydalanildi. Ilmiy manbalar o'rganilib, zamonaviy texnologiyalarning qoraqalpoq tiliga ta'siri tahlil qilindi. Shuningdek, internet resurslari, elektron lug'atlar va onlayn ta'lim platformalarining til rivojidadagi o'rni misollar orqali ko'rsatildi. Natijalar umumlashtirilib, zamonaviy texnologiyalar til taraqqiyotining muhim omillaridan biri ekani aniqlandi.

Tahlil va natijalar. Axborot texnologiyalari tilni o'rganish va tadqiq etish jarayonini sezilarli darajada yengillashtirdi. Elektron kutubxonalar, raqamli matnlar, onlayn lug'atlar va avtomatik tarjima tizimlari orqali foydalanuvchilar qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin.

Axborot jamiyati nazariyotchisi Manuel Castells zamonaviy kommunikatsiya haqida shunday yozadi: "*Yangi axborot texnologiyalari bilim ishlab chiqarish va tarqatish usullarini tubdan o'zgartirmoqda.*" (Castells, 1996). Bu jarayon tilshunoslikka ham ta'sir ko'rsatib, lingvistik tadqiqotlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Bugungi kunda sun'iy intellekt asosidagi dasturlar yoradamida xorijiy tillarni o'rganish, matnlarni tahlil qilish, nutqni matnga aylantirish, shuningdek turli xil tahlillar qilish mumkin.

Bunday texnologiyalar orasida Google xizmatlari hamda turli xil sun'iy intellekt dasturlari yordamida yaratilgan Deepseek va **ChatGPT** kabi tizimlar til bilan ishlash jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Internet qoraqalpoq tilini keng auditoriyaga yetkazish imkonini yaratdi. Ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va video platformalar orqali qoraqalpoq tilidagi kontent soni ortib bormoqda. Natijada yoshlar orasida ona tilidan foydalanish darajasi oshmoqda.

"Til muloqot orqali yuzaga chiqadi. U aniq bir vaqtda so'zlashish orqali harakat qilib, jamiyatning turli xil sohasida qo'llaniladi"[4.13]. Shu sababli tilni zamonaviy vositalar orqali rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda til o'rganish jarayonida mobil ilovalar muhim o'rin egallaydi. Onlayn kurslar, videodarslar va interaktiv mashg'ulotlar orqali qoraqalpoq tilini nafaqat Qoraqalpog'istonda, balki boshqa mamlakatlarda ham o'rganish mumkin.

Raqamli ta'lim nazariyasi mualliflaridan biri George Siemens quyidagicha ta'kidlaydi: "*Texnologiyalar odamlarning qanday yashashi, muloqot qilishi va bilim olishini o'zgartirib yubordi.*" Bu esa til ta'limi tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Elektron lug'atlar, matn tekshiruvchi dasturlar, nutqni tanish tizimlari til o'rganishni ancha qulaylashtiradi. Ayni vaqtda Qoraqalpoq tilining rivojlanishiga katta hissa qo'shayotgan Tilmochoz.uz, from-to.uz kabi dasturlarni kuzatishimiz mumkin. Tilmochoz.uz o'zbek tilidan qoraqalpoq tiliga yoki qozoq ya'ni barcha turkiy tillarga tarjima qilib,

matndagi imloviy xatolarni ko'rsatib beradi. Bundan tashqari xorijiy tillarga ham o'girish mumkin. Sun'iy intellekt ham qo'shilgan bo'lib, yuklangan faylni to'laligicha tarjima qilib ham beradi. From-to.uzda ham huddi shunga o'xshash xususiyatlar mavjud.

Qoraqalpoq tilning leksik tarkibi uning tarixiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Qoraqalpoq tilining lug'at boyligi quyidagi qatlamlardan tashkil topadi: turkiy tillarga umumiy bo'lgan so'zlar, qoraqalpoq tiliga xos milliy birliklar, arab va fors tillaridan kirib kelgan so'zlar, rus tili orqali kirgan so'zlar.

Bundan tashqari, til tizimida sinonimlar, antonimlar, omonimlar hamda frazeologik birliklar muhim stilistik vazifa bajaradi. Til taraqqiyoti jarayonida yangi so'zlar – neologizmlar paydo bo'lib boradi.

Kompyuter lingvisti Christopher Manning shunday yozadi: *“Katta hajmdagi raqamli matnlar lingvistlarga til qonuniyatlarini ilgari mumkin bo'lmagan darajada tahlil qilish imkonini beradi”*.

Qoraqalpoq tilshunosligida ham elektron korpuslar yaratish va raqamli lug'atlar tuzish kelajakdagi muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Qoraqalpoq tilining rivojlanishi xalqning madaniy merosi bilan ham chambarchas bog'liq. Bu borada qoraqalpoq adabiyoti va folklori muhim o'rin tutadi. Mashhur shoir va mutafakkir Ajiniyaz nomi bilan bog'liq adabiy an'analar bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Zamonaviy texnologiyalar esa ushbu boy merosni raqamlashtirish, saqlash va keng targ'ib qilish imkonini bermoqda. Elektron kutubxonalar va onlayn arxivlar orqali tarixiy manbalar keng auditoriyaga yetib bermoqda.

Raqamli texnologiyalar qoraqalpoq tilining rivojlanishida yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Internet tarmog'i orqali elektron darsliklar, ilmiy maqolalar, lug'atlar va o'quv materiallari keng tarqalmoqda. Bu esa talabalar, tadqiqotchilar va o'qituvchilar uchun zarur ma'lumotlarni tez va qulay topish imkonini beradi.

Elektron ta'lim tizimlari ham tilni o'qitishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Onlayn platformalar, video ma'ruzalar, interaktiv testlar va multimedia materiallari o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, masofaviy ta'lim texnologiyalari yordamida qoraqalpoq tilini nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda ham o'rganish imkoniyati kengaymoqda.

Shuningdek, kompyuter lingvistikasi sohasining rivojlanishi til tadqiqotlariga yangi yondashuvlarni olib kirdi. Elektron matn korpuslari, avtomatik tahlil dasturlari va tarjima tizimlari tilning grammatik hamda leksik xususiyatlarini chuqurroq o'rganishga yordam bermoqda. Bunday texnologiyalar ilmiy izlanishlarni tezlashtirib, yangi ilmiy natijalarga erishish imkonini beradi.

Zamonaviy texnologiyalar qoraqalpoq tilining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Internet, sun'iy intellekt, mobil ilovalar va raqamli platformalar tilni saqlash, o'rganish va targ'ib qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ayniqsa, yosh avlod orasida

ona tilidan foydalanishni rag'batlantirish, elektron resurslarni ko'paytirish va ilmiy tadqiqotlarni raqamlashtirish muhim vazifalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy texnologiyalar qoraqalpoq tilining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Raqamli ta'lim, internet resurslari, elektron lug'atlar, lingvistik dasturlar va ijtimoiy tarmoqlar tilning o'rganilishi va ommalashuviga katta hissa qo'shmoqda. Ilmiy manbalarda ta'kidlanganidek, tilning fonetik, leksik va grammatik tizimini chuqur o'rganish bilan birga, uni zamonaviy texnologiyalar yordamida rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Kelajakda qoraqalpoq tilining raqamli korpusini yaratish, sun'iy intellekt asosidagi tarjima tizimlarini ishlab chiqish va ta'lim platformalarini rivojlantirish tilning xalqaro miqyosda ham rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Crystal D. *Language and the Internet*. Cambridge University Press, 2001.
2. Castells M. *The Rise of the Network Society*. Oxford, 1996.
3. A.Davletov, M.Davletov. Qoraqalpoq tili. Nukus, 2002
4. Warschauer M. *Technology and Social Inclusion*. MIT Press, 2003.
5. Siemens G. *Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age*. 2005.
6. Manning C., Schütze H. *Foundations of Statistical Natural Language Processing*. MIT Press, 1999.
7. Baskakov N. *Karakalpak Language*. Moscow, 1952.

Ajlatiyev atindagi
NOKIY MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
NMPPI
1934